UMUMTA'LIM MAKTABLARIDA TABIIY FANLARNI O'QITISHGA BO'LAJAK O'QITUVCHILARNI TAYYORLASH ISLOHOTLARI

Qo'qonboyeva Shaxlo Rafikjonovna

Qo'qon davlat pedagogika instituti katta o'qituvchisi, p.f.f.d (PhD)

Kukonboyev Baxodir Muqimovich

Farg'ona viloyati, Furqat tumani kasb-hunar maktabi fizika o'qituvchisi

Annotatsiya: Maqolada umumta'lim maktablarida tabiiy fanlarni o'qitishga bo'lajak o'qituvchilarni tayyorlash hamda bu borada amalga oshirilayotgan ishlar haqida so'z borgan.

Kalit so'zlar: Ta'lim sifati, davlat ta'lim standarti, o'quv dasturi, o'quv reja, STEAM, "Tabiiy fanlar".

Аннотация: В статье говорится о подготовке будущих учителей к преподаванию естественных наук в общеобразовательных школах и работе, проводимой в этом направлении.

Ключевые слова: Качество образования, государственный образовательный стандарт, учебная программа, учебная программа, STEAM, «Sciences».

Abstract: The article talks about the training of future teachers to teach natural sciences in secondary schools and the work being done in this regard.

Key words: Quality of education, state educational standard, curriculum, curriculum, STEAM, "Sciences".

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 5 sentyabrdagi "2018–2021-yillarda O'zbekiston Respublikasi xalq ta'limi tizimini yanada takomillashtirish bo'yicha chora tadbirlar dasturi to'g'risida"gi №PQ–3931- son qarorida ta'lim sifatini yaxshilash va innovatsion ta'lim texnologiyalarini joriy etish vazifasi belgilangan bo'lib, yangi davlat ta'lim standartlari va umumiy o'rta ta'lim o'quv dasturlarini takomillashtirish, hamda STEAM usulini bosqichma-bosqich joriy etish va takomillashtirish belgilangan. Ushbu vazifalarni amalga oshirishda umumta'lim maktablarida 2021 yildan joriy qilingan "Tabiiy fanlar"ni ham o'qitish jarayonida STEAM yondashuv asosida tashkil qilish muhim ahamiyatga ega.

Umumta'lim maktablarida an'anaviy ta'limdan loyihaviy faoliyatli ta'limga o'tish va olgan bilimlarini amaliyotda faol qo'llay olish, kelajakda ehtiyoj kuchli bo'lgan kasblarga ega bo'lishda muhim ahamiyat kasb etgan fanlar integratsiyasi muammolar yechimining yangicha yo'llarini izlash va kichik tadqiqotlarga yo'naltirish uchun STEAM yondashuv zarur bo'ladi.

Bizningcha umumta'lim maktablarida STEAM yondashuvini joriy qilishda o'qituvchilarni qayta tayyorlash kurslarida o'qitish, pedagoglar tayyorlaydigan oliy ta'lim muassasalarida esa bo'lajak o'qituvchilarni tayyorlashda o'quv dasturlariga qo'shimcha ravishda STEAM elementlarini qo'shish va auditoriyalar va o'quv xonalarini shunga mos ravishda jihozlash zarurati paydo bo'ladi.

Bu borada 2023-2024 o'quv yilida Qo'qon davlat pedagogika instituti "O'quv-uslubiy boshqarmasi" va "Fizika va astronomiya" kafedrasi pedagog hodimlari tomonidan bir qator ishlar amalga oshirilmoqda.

O‘zbekiston Respublikasi ta’limni rivojlantirish Respublika ilmiy-metodik markazining 2023-yil 12-sentabr sanasidagi 01/113-sonli xatida joriy o‘quv yilidan boshlab umumta’lim muassasalarining boshlang‘ich sinflar uchun ilg‘or tajribalar asosida yaratilgan o‘quv dastur va darsliklar bosqichama-bosqich amaliyotga joriy etilishi munosabati bilan yangi o‘quv dasturlari va va o‘quv metodik majmualarni amaliyotda samarali qo‘llash maqsadida bo‘lajak o‘qituvchi kadrlarni tayyorlashda pedagogik ta’lim yo‘malishlari va magistratura mutaxassisliklari, qayta tayyorlash va malaka oshirish markazlarining amaldagi o‘quv reja va va fan dasturlariga jami 6 soat hajmda quyidagi mavzularni kiritish maqsadga muvofiq deb keltirilgan.

1. “O‘quvchilarda tanqidiy fikrlash, ijodkorlik, muloqot va hamkorlik ko‘nikmalarini rivojlantirishda “4K” modeli” –2 soat
2. O‘quv tarbiya jarayonida o‘quv-metodik majmualar, jumladan, darslik, mashq daftari, o‘qituvchi kitobi va multimedia resurslarini samarali qo‘llash” –2 soat
3. “Oquvchilar natijalarini baholash metodikasi va amaliyoti” –2 soat.

a) Ushbu mavzular 60110700-Fizika va astronomiya bakalavriat ta’lim yo‘nalishi talabalari uchun tuzilgan 2023-2024 yilgi o‘quv rejada mavjud majburiy fan “Fizika o‘qitish metodikasi” fani o‘quv dasturi mavzulari qatoriga kiritildi.
b) Yuqoridagi “Fizika o‘qitish metodikasi” fani o‘quv dasturiga yana quyidagi mavzular ham kiritildi:

“Fizika fanidan uzluksiz ta’limda uzviylikni ta’minlash konsepsiyalari va milliy o‘quv dasturlari” va Xorijiy ta’lim tizimlariga 2 –soatdan, “Umumiy o‘rta ta’lim maktablarining I,II,III,IV,VI sinflar uchun “Tabiiy fanlar” darsligining tuzilishi va ilmiy metodik tahlili” –2 soatdan ajratildi.

s) O‘quv rejaga “Tanlov fanlar” sifatida “STEAM ta’lim tizimida fizika va astronomiyani o‘qitish” va “SCIENCE fanini o‘qitish metodikasi” fanlari kiritildi hamda fan dasturlari ishlab chiqildi.

“Tabiiy fanlar”ni STEAM yondoshuvi asosida tashkil etishda muxandislik va texnologik ta’limning asosiy g‘oyalari va tabiiy fanlarning asosiy g‘oyalari bilan bir xil statusga ega bo‘lishi kerakligini bo‘lajak o`qituvchilarga o’rgatish, bu g‘oyalarni o‘quvchilarga yetkazib bera olishni rivojlantirib borilishi kerak.

Albatta, bo‘lajak pedagog o‘qituvchilarni xalqaro tadqiqotlarda qo‘llaniladigan metodikalar bilan tanishtirib borishning bunday tizimli tarzda yo‘lga qo‘yilishi kelajakda o‘zining samarali natijalarini beradi deb hisoblaymiz.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 05.09.2018 yildagi “2018–2021-yillarda O‘zbekiston Respublikasi xalq ta’limi tizimini yanada takomillashtirish bo‘yicha chora tadbirlar dasturi to‘g‘risida”gi №PQ–3931- son qarori.

2. Z.B.Sangirova va boshqalar Tabiiy fanlar., Umumiy o‘rta ta’lim maktablarining 6-sinfi uchun darslik –T.: Respublika ta’lim markazi, 2022. – 192 b.

3. Sh.R.Qo‘qonboyeva, Pedagogik amaliyot jarayonida bo‘lajak fizika o‘qituvchisi kompetentligini shakllantirish masalasi. Academic research in educational sciences, Volume 2(CSPI conference 3), 108-112. (2021).

4. Sh.R.Qo‘qonboyeva, Method of diagnosing the formation of competensions in the future teachers, International Conference on Research in Humanities, appliyed Sciences and Education». Berlin, Germany, June 30th 2022.- P 275-278.

5.Qo‘qonboyeva, Sh R. "Formation of professional competence of future physics teachers through independent education.,«Academicia An International Multidisciplinary Research journal» India, Vol 12, Issue 05, May 2022." 1202-1205.

6. Qo‘qonboyeva, Sh R. "On the diagnosis of the level of professional training of future physical teachers."*Web of scientist: International scientific research journal* 3: 85-90.

7. Sh,Qo‘qonboyeva. "Turdiyev N. Bo‘lajak fizika o‘qituvchilari kasbiy kompetentligini shakllantirishda va baholashda kompetentlikka yo‘naltirilgan topshiriqlar. Metodik qo‘llanma." *Toshkent. Turon-Iqbol* (2021).

8. Kukonboyeva, S.R., B.M. Kukonboyev, and H.M.Ergasheva. "TAJRIBA O'TKAZISH BILAN BO'LGAN VAZIFALAR." *Umumjahon fanlari bo'yicha ta'lim tadqiqotlari* 2.2 (2023): 78-81.

9. Qo‘qonboyeva, Sh R., and N.Sh.Turdiyev. "Bo‘lajak fizika o‘qituvshilarining kompetentligini shakllantirishda va baholashda kompetentlikka yo‘naltirilgan topshiriqlardan foydalanish." (2021).